XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 10-mart VII-17-21-3-53-K/26 Forish tumani

Xalq deputatlari Forish tuman Kengashining 2025-yil 19-iyundagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi VII-8-68-3-53-K/25-sonli qarorining ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta′minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan, tumandagi 24 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 765 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflardan 2 ta geografik obyektga taklif etilgan nom O‘zbekiston Respublaikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan ekspertiza xulosasi tasdiqlangan. Xalq deputatlari Forish tuman Kengashining 2025-yil 19-iyundagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi VII-8-68-3-53-K/25-sonli qarorining ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi H.Egamovaning hisobotini atroflicha muhokama qilib, xalq deputatlari Forish tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 26-avgustdagi

05-19-14600-sonli Ekspertiza xulosasi hamda tuman hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi H.Egamovaning hisoboti ma′lumot uchun qabul qilinsin.

2. Forish tumani geografik obyektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari xalq deputatlari Forish tuman Kengashining 2025-yil 19-iyundagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi VII-8-68-3-53-K/25-sonli qarorining ilovasini 7- va 45-bandlari yangi tahrirdagi ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilganligi ma’qullansin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (B.Naimov) tuman mahallalaridagi nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalarga aholini ro‘yxatga qo‘yish va tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Forish tumani filiali (F.To‘ychiyev), tuman stasistika bo‘limi (T.Qo‘narov)larga:

tumanda yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik obyektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha tuman stastistika ma′lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Botirov) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi H.Egamovalar zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **KARIMOV BOTIR NARINOVICH**

Xalq deputatlari Forish tumani
Kengashining
2026-yil 10-martdagi
VII-17-21-3-53-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Forish tumani geografik obyektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Ko‘cha	Oqtepa mahallasi	**Nomsiz**	**Mehrjon**	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	Qizilqum mahallasi	**Binokorlar**	**Olchazor**	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.